

KONFERENSIYA

“JIZZAX VILOYATI IJTIMOIIY-IQTISODIY
RIVOJLANISHINING ASOSIY
YO’NALISHLARI: MUAMMO VA YECHIMLAR”



RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY ANJUMANI

2025-yil 21 noyabr

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY
UNIVERSITETINING JIZZAX FILIALI**



**JIZZAX VILOYATI IJTIMOIIY-IQTISODIY
RIVOJLANISHINING ASOSIY YO‘NALISHLARI:
MUAMMO VA YECHIMLAR**
*mavzusidagi Respublika ilmiy-texnik anjuman materiallari
to‘plami*
(2025-yil 21-22-noyabr)

JIZZAX-2025

Jizzax viloyati ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining asosiy yo‘nalishlari: muammo va yechimlar. Respublika ilmiy-texnik anjuman materiallari to‘plami – Jizzax: O‘zMU Jizzax filiali Iqtisodiyot va turizm kafedrası, 2025-yil 21-22-noyabr. 557-bet.

Respublika miqyosidagi ilmiy-texnik anjuman materiallarida zamonaviy kompyuter ilmlari va muhandislik texnologiyalari sohasidagi innovatsion tadqiqotlar aks etgan.

Globallashuv sharoitida davlatimizni yanada barqaror va jadal sur‘atlar bilan rivojlantirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan islohotlar samarasini yaxshilash sohasidagi ilmiy-tadqiqot ishlariga alohida e‘tibor qaratilgan. Zero iqtisodiyotning, ijtimoiy sohalarni qamrab olgan modernizatsiya jarayonlari, hayotning barcha sohalarini liberallashtirishni talab qilmoqda.

Ushbu ilmiy ma‘ruza tezislari to‘plamida mamlakatimiz va xorijlik turli yo‘nalishlarda faoliyat olib borayotgan mutaxassislar, olimlar, professor-o‘qituvchilar, ilmiy tadqiqot institutlari va markazlarining ilmiy xodimlari, tadqiqotchilari, magistr va talabalarning ilmiy-tadqiqot ishlari natijalari mujassamlashgan.

Mas‘ul muharrirlar: DSc.prof. Turakulov O.X., t.f.n., dots. Baboyev A.M.

Tahrir hay‘ati a‘zolari: p.f.d.(DSc), prof. Turakulov O.X., t.f.n., dots. Baboyev A.M., t.f.f.d.(PhD), prof. Abduraxmanov R.A., p.f.f.d.(PhD) Eshankulov B.S., p.f.n., dots. Alimov N.N., p.f.f.d.(PhD), dots. Alibayev S.X., t.f.f.d.(PhD), dots. Abdumalikov A.A, p.f.f.d.(PhD) Hafizov E.A., f.f.f.d.(PhD), dots. Sindorov L.K., t.f.f.d.(PhD), dots. Nasirov B.U., b.f.f.d. (PhD) O‘ralov A.I., p.f.n., dots. Aliqulov S.T., t.f.f.d.(PhD) Kuvandikov J.T., i.f.n., dots. Tsoy M.P., Sharipova S.F., Jo‘rayev M.M.

Mazkur to‘plamga kiritilgan ma‘ruza tezislarning mazmuni, undagi statistik ma‘lumotlar va me‘yoriy hujjatlarning to‘g‘riligi hamda tanqidiy fikr-mulohazalar, keltirilgan takliflarga mualliflarning o‘zlari mas‘uldirlar.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. World Bank. “Industry Competitiveness and Services”
2. OECD. “Digital Transformation in Manufacturing”
3. Parasuraman A., Zeithaml V., Berry L. “SERVQUAL Model”, Journal of Retailing
4. McKinsey. “Textile Value Chain Management Report”
5. HBR. “CRM as a Strategic Advantage in Global Apparel Industry”
6. ITC (International Trade Centre). “Textile Industry Digitalization”
7. Deloitte. “IoT in Apparel Manufacturing”
8. Toyota Service Management Principles
9. IBM & MIT Joint Report. “AI-based Service Optimization”

SANOAT - MILLIY IQTISODIYOTNING YETAKCHI TARMOG‘I

Nizametdinov Alijon Akramovich

UZMUJF o‘qituvchisi

Ropiyeva Fero‘za Bekzod qizi, Sharifova Iroda Erkin qizi, Boliyeva Sitorabonu

Husan qizi

UZMUJF talabalari

Annotatsiya: Ushbu mavzuda sanoatning milliy iqtisodiyotdagi o‘rni, ahamiyati va yetakchi tarmoq sifatidagi roli yoritiladi. Sanoat mamlakatning iqtisodiy qudratini oshiruvchi, yalpi ichki mahsulotda yuqori ulushga ega bo‘lgan, aholi bandligini ta‘minlaydigan va boshqa iqtisodiy tarmoqlar rivojiga turtki beruvchi asosiy soha sifatida talqin etiladi. Mavzuda sanoatning tarkibiy tuzilishi, modernizatsiya jarayonlari, texnologik yangilanishlar, eksport salohiyatini oshirishdagi o‘rni hamda hududiy rivojlanishdagi ta‘siri tahlil qilinadi. Shuningdek, innovatsion sanoat siyosati, raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish va iqtisodiy barqarorlikka erishishda sanoatning strategik ahamiyati ochib beriladi.

Kalit so‘z: sanoat, iqtisodiyot, texnologiya, mexanizm, mahsulot, duradgorchilik, temirchilik

Sanoat - bu ijtimoiy-iqtisodiy kategoriyadir. demak, sanoat obyektiv reallik (borliq)ning in‘ikosi va yuksak umumlashmasidir. Uning alohida tarmoq, ya‘ni ijtimoiy ishlab chiqarishning alohida sohasi bo‘lib yuzaga kelishi ishlab chiqarish kuchlari va ijtimoiy mehnat taqsimotining rivoji bilan tarixiy jihatdan bog‘liqdir. Sanoat ham obyektiv borliqning muhim hodisalari qatorida ma‘lum davr (vaqt va fazo) da dunyoga kelgan, muayyan qonun va qoidalar asosida rivojlangan, ma‘lum miqdor va sifatlarga, zarurat va imkoniyatlarga ega bo‘lgan hamda ziddiyatlar qurboni ham bo‘lgan.

O‘zbekiston sanoati ham o‘z taraqqiyoti jarayonida bir qator bosqichlarni bosib o‘tgan. Eng avvalo, uy sanoati, so‘ngra, hunarmandchilik, ya‘ni xonaki sanoat,

kooperatsiya, manufaktura, fabrika kabi shakllari yuzaga kelgan. Bu yerda hunarmandchilikning juda ko‘p turlari, ya’ni kulolchilik, duradgorchilik, toshlaroshlik, binokorlik, o‘ymakorlik, kashtado‘zlik, ko‘nchilik, to‘quvchilik va tikuvchilik, temirchilik, misgarlik va zargarlik, degrezlik, rixtagarlik, zardo‘zlik, bo‘yoqchilik, tunukasozlik va boshqalar keng tarqalgan.

Bu yerda hunarmandchilik (“xonaki sanoat”) bronza asrida dehqonchilikdan ajralib chiqqan. milodning dastlabki asrlarida hozirgi O‘zbekiston hududida anchagina hunarmandchilik markazlari tashkil topgan. IX-X asrlarda ip, mato, gilam bo‘yicha xiva va Shosh, mis va temirdan aslaha, pichoq tayyorlash bo‘yicha Farg‘ona, shoyi matolar, shisha mahsulotlar tayyorlash bo‘yicha Buxoro dunyoga tanilgan. XII-XIII asrlarda rivojlanish pasayib, Temuriylar davlatining vujudga kelishi bilan hunarmandchilik yanada rivoj topgan. Buxoro, Samarqand, xiva, Toshkent, Shahrisabz kabi shaharlarning ishlab chiqarish munosabatlarida hunarmandchilik alohida ahamiyat kasb etgan. XIX asr oxiriga kelib, O‘zbekistonda hunarmandchilikning 30 ga yaqin turi rivoj topgan. XX asr boshlarida esa hunarmandchilikning asosiy qismi artellarga, keyinchalik zavod va fabrikalarga, badiiy buyumlar korxonalariga aylantirilgan.

XVIII asrning 60-70-yillarida Angliyada ro‘y bergan Sanoat to‘ntarilishidan keyin O‘zbekistonda asta-sekin manufakturalardan mashinalashgan industriyaga o‘tish boshlandi. xomashyoga birlamchi ishlov beradigan sanoat sohalari (paxta tozalash, ipak tortish, vino, konserva, moy zavodlari) vujudga keldi.

XX asrda O‘zbekiston sanoatida juda katta o‘zgarishlar ro‘y berdi. Agar asr boshlarida sanoat mahsulotining eng muhim turlaridan 5-10 xili (paxta tolasi, xom ipak, o‘simlik moyi, uzum vinosi, g‘isht, ganch va boshqalar) ishlab chiqarilgan bo‘lsa, hozirgi paytda yuzlab-minglab turlari tayyorlanmoqda.

Sanoat moddiy ishlab chiqarishning asosiy va yetakchi tarmog‘idir. Sanoatning vujudga kelishi va rivojlanishi ishchilar sonining oshishi va uning jamiyatdagi mavqei ko‘tarilishiga olib keladi. mustaqillik davrida jamiyatni tarixiy jihatdan yangilashda ishchilarning avangardlik roli to‘g‘risida gap yuritilar ekan, faqat ishchilar sinfigina mehnatkashlar ommasining birlashuviga, jipslashuviga va istiqlolni himoya qilishga, mustahkamlashga va uni uzil-kesil ta‘minlashga yordam bera oladi, deyish mumkin. Ana shu fikrni O‘zbekiston voqe‘ligi kun sayin tasdiqlamoqda. O‘zbekiston ishchisi respublika yalpi ijtimoiy mahsulotining, milliy daromadning asosiy qismini bunyod etmoqda, mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy salohiyatini yuqori darajaga ko‘tarishda faol ishtirok etmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi ishchilari qiyofasida ham barcha rivojlangan mamlakatlar ishchilaridagidek, ongli industrial mehnat-kashning va insonlar munosabatining yuksak normalari va umuminsoniy tamoyillarini, qadriyatlarini qaror toptiruvchi, yangi hayot uchun ilg‘or kurashchi xislatlari bir butun bo‘lib mujassamlashgan.

Sanoat taraqqiyotining muhim qonuniyatlaridan biri sanoat xodimlarining madaniy-texnikaviy, ma‘naviy-ma‘rifiy darajasining o‘sishi, ishlab chiqarish malakasi va tajribasining tinmay oshib borishidir.

O‘zbekiston mehnatkashlarining bilim va ko‘nikmasi, ishlab chiqarish malakasi va mahorati, madaniy va ma‘rifiy saviyasini yuqori darajaga ko‘tarish

bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlarda ham sanoatning yuqori o‘rin tutishini ko‘rish mumkin.

Xulosa qilib aytganda, sanoat milliy iqtisodiyotning asosiy harakatlantiruvchi kuchi bo‘lib, mamlakatning iqtisodiy salohiyati, raqobatbardoshligi va barqaror rivojlanishini belgilovchi yetakchi tarmoqdir. Sanoatning jadal rivojlanishi yangi ish o‘rinlari yaratadi, eksport hajmini oshiradi, iqtisodiyotning boshqa tarmoqlarini modernizatsiya qilishga turtki beradi va innovatsion texnologiyalarni joriy etish imkonini yaratadi. Zamonaviy sanoat infratuzilmasining shakllanishi esa hududlar o‘rtasidagi iqtisodiy tafovutlarni kamaytirishga, iqtisodiy xavfsizlikni mustahkamlashga va xalq farovonligini oshirishga xizmat qiladi. Shu bois sanoatni rivojlantirish davlat iqtisodiy siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri bo‘lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Abdulhakimov N., Jo‘rayev Q. Sanoat iqtisodiyoti. – Toshkent: TDIU nashriyoti, 2020.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori: “Sanoatni rivojlantirish strategiyasi — 2030”. – Toshkent, 2019.
3. Xoshimov M., Abdullayev A. Makroiqtisodiyot. – Toshkent: Ilm Ziya, 2021.
4. Petrovna S. M., Nizametdinov A., Mansurov S. FINANCIAL CRISES AND THEIR IMPACTS ON THE ECONOMY //SGS-Engineering & Sciences. – 2023. – T. 2. – №. 02.
5. Nizametdinov A., Kerim K., Xudoyarov R. YOSHLARNI TADBIRKORLIK ORQALI BANDLIGINI TA‘MINLASH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14216039> //International scientific and practical conference. – 2024. – T. 1. – №. 3. – C. 94-97.
6. Luna A., Nizametdinov A., Xudayarov R. KORXONALAR FAOLIYATINI STRATEGIK BOSHQARISH SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING CHORA TADBIRLARI //Science technology&Digital finance. – 2023. – T. 1. – №. 5. – C. 34-40.
7. Nizametdinov A., Usmonova V., Abdusattorov D. OZIQ-OVQAT MUAMMOSI //Science technology&Digital finance. – 2023. – T. 1. – №. 5. – C. 139-143.
8. Nizametdinov A., Xojiboqiyeva N. RAQAMLI IQTISOD VA INNOVATION AXBOROT-KOMMUNIKATSIYALAR TEXNOLOGIYALARINI JORIY ETISHNI DOLZARB MASALALARI //International Journal of scientific and Applied Research. – 2024. – T. 1. – №. 3. – C. 92-94.